

хисобга олинган бўлса, қайта баҳолаш қиймати баланс қийматидан чиқариб ташланиши керак.

Агар қисқа муддатли инвестициялар бозор қийматидаги ўзгариш даромадга киритилган бўлса, қўшимча баҳолашнинг қолган ҳар қандай миқдори даромадга ўтказилиши керак.

Қисқа муддатли молиявий инвестицияларни узоқ муддатли молиявий инвестициялар тоифасига ўтказиш харид қилиш қиймати ва бозор қийматидан энг ками бўйича ёки агар инвестиция илгари шу қиймат бўйича ҳисобга олинган бўлса, бозор қиймати бўйича амалга оширилади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Tulayev, M. S., & Qlichev, B. P. (2022). Moliyaviy hisob. (Darslik). T.: *“Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi*, 510.
2. Тулаев, М. (2021). Разработка методики определения уровня существенности в аудите. *Экономика и инновационные технологии*, (5), 52-60.
3. Тулаев, М. С. (2023). Ижара олинган асосий воситалар ҳисоби—молиявий фаолиятни молиялаштириш манбаси. *образование наука и инновационные идеи в мире*, 13(7), 3-15.
4. Тулаев, М. (2021). Аудитнинг халқаро стандартлари асосида аудиторлик текширувини ташкил қилиш масалалари. *Архив научных исследований*, 1(1).
5. Тулаев, М. С. (2022). Молиявий инвестициялар ҳисоби амалиётини такомиллаштириш. *Архив научных исследований*, 2(1).

YASHIL INVESTITSİYALAR — QISHLOQ XO‘JALIGINING BARQAROR RIVOJLANISHI ASOSI: XORIJ TAJRIBALARI VA O‘ZBEKISTON IMKONIYATLARI

*Shodiyeva Zarinnabonu Shodi qizi*⁴⁸

Yashil investitsiyalar — ekologik barqarorlikni ta’minlash va iqtisodiy o‘rishni rag‘batlantirish uchun muhim vosita. Qishloq xo‘jaligi va energetika sohalarida amalga oshirilgan yashil investitsiyalar, nafaqat atrof-muhitni muhofaza qilishga, balki global iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishga ham xizmat qilmoqda. Xorij davlatlarining muvaffaqiyatli tajribalari, bu investitsiyalarning ekologik va iqtisodiy foydasini isbotlamoqda. Ushbu tezisda, xorij davlatlarining yashil investitsiyalarni qo‘llashdagi muvaffaqiyatli tajribalari keltiriladi va ularning qishloq xo‘jaligiga ta’siri tahlil qilinadi. O‘zbekistonning yashil investitsiyalarni

⁴⁸ Mustaqil tadqiqotchi

amalga oshirishdagi imkoniyatlari va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan muammolar ham ko‘rib chiqiladi.

1. Daniya: Shamol energiyasiga investitsiya

Daniya, shamol energiyasiga amalga oshirgan keng ko‘lamli investitsiyalar orqali dunyoda yetakchi davlatlardan biriga aylandi. Daniya hukumati tomonidan 1980-yillardan boshlab amalga oshirilgan yashil investitsiyalar natijasida, mamlakat shamol energiyasidan olingan elektr energiyasining 50 foizidan ortig‘ini ishlab chiqaradi⁴⁹. Bu tajriba nafaqat energiya ta‘minotini mustahkamladi, balki yangi ish o‘rinlari yaratish va ekologik barqarorlikni ta‘minlashda muhim rol o‘ynadi.

2. Kanada: Organik qishloq xo‘jaligiga investitsiyalar⁵⁰

Kanadada organik qishloq xo‘jaligiga investitsiyalar 2000-yillardan boshlab kuchaytirildi, bu esa ekologik toza mahsulotlar yetishtirishni rag‘batlantirdi. Organik qishloq xo‘jaligi orqali Kanadada ekologik barqarorlikni ta‘minlash, chiqindilarni kamaytirish va tabiiy resurslardan samarali foydalanish mumkin bo‘ldi. Shuningdek, organik mahsulotlar eksportini oshirish va xalqaro bozorlarda raqobatbardoshlikni kuchaytirish ham asosiy maqsadlaridan biri edi.

3. Shveytsariya: Suv resurslarini boshqarish va energiya samaradorligi

Shveytsariyada suv resurslarini boshqarish va energiya samaradorligini oshirish uchun amalga oshirilgan yashil investitsiyalar ekologik innovatsiyalarni qo‘llashda samarali yo‘nalish bo‘ldi. Mamlakatda qishloq xo‘jaligida energiya tejash texnologiyalarining rivojlanishi va bioenergiya ishlab chiqarish sohasiga qaratilgan investitsiyalar iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashishning samarali usuliga aylandi. Suv resurslarini samarali boshqarish va chiqindilarni qayta ishlash orqali Shveytsariya ekologik xavfsizlikni ta‘minlashda katta muvaffaqiyatlarga erishdi⁵¹.

4. Niderlandiya: Vertikal fermalar va aqlli qishloq xo‘jaligi

Niderlandiya o‘zining innovatsion texnologiyalarini qo‘llash orqali qishloq xo‘jaligi sohasida katta yutuqlarga erishdi. Vertikal fermalar va aqlli qishloq xo‘jaligi texnologiyalari, resurslarni tejash va barqaror rivojlanish uchun muhim omilga aylandi. Shahar hududlarida yer resurslaridan samarali foydalanish, energiya samaradorligi va suvni tejash masalalari hal qilindi. Bu texnologiyalar nafaqat ekologik jihatdan foydali, balki iqtisodiy o‘sishga ham hissa qo‘shdi⁵².

5. Hindiston: Qishloq xo‘jaligida qayta tiklanadigan energiya

Hindistonda qishloq xo‘jaligida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish orqali qishloq xo‘jaligi tizimining barqarorligini oshirishga katta e‘tibor

⁴⁹ UNEP (Birlashgan Millatlar Tashkiloti Atrof-muhit Dasturi) <https://www.unep.org/>

⁵⁰ OECD (Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti) <https://www.oecd.org/>

⁵¹ FAO (Birlashgan Millatlar Tashkiloti Qishloq Xo‘jaligi va Oziq-ovqat Tashkiloti) <https://www.fao.org/>

⁵² World Bank – Green Investments <https://www.worldbank.org/>

qaratilgan. Quyosh energiyasidan foydalangan holda sug‘orish tizimlarini optimallashtirish va energiya samaradorligini oshirish natijasida, Hindistonda qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining ekologik xavfsizligi ta‘minlandi. Bu tajriba qishloq hududlarida yashil investitsiyalarni rag‘batlantirish va ijtimoiy farovonlikni oshirishga katta ta‘sir ko‘rsatdi⁵³.

6. O‘zbekiston: Yashil investitsiyalar va imkoniyatlar

O‘zbekiston yashil investitsiyalarni joriy etishda katta imkoniyatlarga ega. Hozirda mamlakatda quyosh va shamol energiyasidan foydalanish, organik qishloq xo‘jaligi, suvni tejash texnologiyalarini qo‘llash va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish borasida katta qadamlar qo‘yilmoqda⁵⁴.

Quyidagi jadvalda xorij davlatlari tajribasi va ulardan O‘zbekiston uchun qilinishi lozim bo‘lgan chora-tadbirlarni yaqqol ko‘rishimiz mumkin:

Davlat	Investitsiya yo‘nalishi	Asosiy natijalar	O‘zbekiston uchun darslar
Daniya	Shamol energiyasi	Energiya mustaqilligi, 50% elektr shamol orqali, ish o‘rinlari	Shamol resurslarini aniqlash va zonal loyihalar ishlab chiqish
Kanada	Organik qishloq xo‘jaligi	Ekologik mahsulotlar, chiqindilarni kamaytirish, eksport o‘sishi	Organik dehqonchilikni sertifikatlash va eksportga yo‘naltirish
Shveytsariya	Suv resurslarini boshqarish, energiya samaradorligi	Bioenergiya, energiyani tejash, chiqindini qayta ishlash	Suv tejovchi texnologiyalarni joriy qilish, bioenergiya ishlab chiqarish
Niderlandiya	Vertikal fermalar, aqlli texnologiyalar	Yer va suv tejash, urban dehqonchilik, raqamlashtirish	Aqlli qishloq xo‘jaligi tizimlarini sinovdan o‘tkazish
Hindiston	Quyosh energiyasi orqali sug‘orish	Qishloq infratuzilmasi yaxshilandi, energiya sarfi kamaydi	Quyosh nasoslari va sug‘orish tizimlarini kengaytirish

O‘zbekistonning iqlim o‘zgarishiga qarshi kurashish va atrof-muhitni himoya qilish borasidagi tashabbuslari iqtisodiy o‘sishni qo‘llab-quvvatlashda muhim rol

⁵³ Green Investment: A Guide to Sustainable Investment" by A. P. J. W. Vermeend "Sustainable Development and Green Investments" by Peter O'Mara

⁵⁴ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrda PQ–436-sonli qarori. 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida. – <https://president.uz/oz/lists/view/5805>

o‘ynaydi. Biroq, yashil investitsiyalarni amalga oshirishda bir qancha muammolar mavjud:

- Texnologik infratuzilmaning yetishmasligi: Yashil texnologiyalarni ishlab chiqish va joriy etish uchun zarur bo‘lgan infratuzilma va tajriba hali to‘liq rivojlanmagan.
- Moliya va investitsiya manbalarining cheklanganligi: Yashil investitsiyalarni amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy resurslar va investitsiya manbalarining cheklanganligi.

O‘zbekiston uchun yashil investitsiyalarni amalga oshirishda ko‘plab imkoniyatlar mavjud. Mamlakatda quyosh va shamol energiyasining kengayishi, organik qishloq xo‘jaligini rivojlantirish, suvni tejash texnologiyalarini tatbiq etish va qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish borasida katta potentsial mavjud. Biroq, bu yo‘lda texnologik va moliyaviy to‘siqlarni bartaraf etish, zarur infratuzilmani yaratish, xalqaro hamkorlikni kuchaytirish va ilmiy-texnikaviy salohiyatni oshirish zarur. O‘zbekistonning yashil investitsiyalarni rivojlantirish borasida o‘ziga xos iqtisodiy va ijtimoiy sharoitlari mavjud bo‘lib, ular yashil texnologiyalarni joriy etish va barqaror rivojlanishga erishishda hal qiluvchi omil bo‘ladi.

Yashil investitsiyalarning qishloq xo‘jaligi va energetika sohalarida amalga oshirilishi O‘zbekistonning barqaror rivojlanish strategiyasini kuchaytiradi. Bu jarayon nafaqat ekologik xavfsizlikni ta‘minlash, balki iqtisodiy barqarorlik va ijtimoiy farovonlikni oshirishga ham xizmat qiladi.

Xorijiy tajribalardan o‘rganib, O‘zbekiston o‘zining yashil investitsiya strategiyasini samarali ravishda amalga oshirishi va dunyodagi ilg‘or davlatlar qatoriga qo‘shilishi mumkin. Yashil investitsiyalarni muvaffaqiyatli rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan barcha omillar, shu jumladan ilmiy-texnik yondashuvlar va iqtisodiy-moliyaviy resurslarni mobilizatsiya qilish O‘zbekistonning ekologik barqarorlikka erishish yo‘lida kelajakdagi yutuqlarini kafolatlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ–436-sonli qarori. 2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining "yashil" iqtisodiyotga o‘tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida. – <https://president.uz/oz/lists/view/5805>

2. Green Investment: A Guide to Sustainable Investment" by A. P. J. W. Vermeend "Sustainable Development and Green Investments" by Peter O‘Mara

3. UNEP (Birlashgan Millatlar Tashkiloti Atrof-muhit Dasturi) <https://www.unep.org/>

4. OECD (Iqtisodiy Hamkorlik va Rivojlanish Tashkiloti) <https://www.oecd.org/>
5. FAO (Birlashgan Millatlar Tashkiloti Qishloq Xo‘jaligi va Oziq-ovqat Tashkiloti) <https://www.fao.org/>
6. Malikov, N., Qineti, A., Pulatov, A., & Shukurov, S. (2016). The role of agriculture in economic development of Uzbekistan (pp. 184-192).
7. World Bank – Green Investments <https://www.worldbank.org/>

YASHIL IQTISODIYOT: O‘ZBEKISTON TAJRIBASI VA BARQAROR RIVOJLANISH UCHUN YO‘NALISHLAR

Xakimjanova Aziza Baxromjon qizi⁵⁵

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasining yashil iqtisodiyotga o‘tish bo‘yicha olib borayotgan siyosiy, institutsional va sektoral islohotlari tahlil qilinadi. Energetika, qishloq xo‘jaligi, suv xo‘jaligi, chiqindilarni boshqarish va transport sohalarida amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar asosida mamlakatning ekologik barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan strategik yondashuvlari yoritilgan. Shu bilan birga, mavjud tizimli muammolar, moliyaviy va texnologik cheklovlar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar. Yashil iqtisodiyot, barqaror rivojlanish, ekologik siyosat, qayta tiklanuvchi energiya, chiqindilarni boshqarish, suv resurslari, fiskal islohotlar, energiya samaradorligi, yashil moliya.

Kirish. So‘nggi yillarda O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sish sur‘atlarini tezlashgan bo‘lsada, bu o‘sish ko‘pincha atrof-muhitga salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Suv tanqisligi, atmosferaning ifloslanishi, cho‘llanish, tabiiy resurslarning haddan tashqari ekspluatatsiyasi kabi ekologik muammolar uzoq muddatli rivojlanishga jiddiy xavf tug‘dirmoqda. Shuning uchun ekologik barqarorlik va iqtisodiy o‘sish o‘rtasida muvozanatga erishish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, global kelishuvlar va xalqaro tashabbuslarning talablari ham mamlakatlar oldiga yangi majburiyatlar qo‘ymoqda. Bu esa iqtisodiy yondashuvlarga qayta nazar tashlash, mavjud modellarni tanqidiy baholash va yangi yo‘nalishlar asosida rivojlanish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Aynan shu sharoitda O‘zbekistonning “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi (2019–2030)” hamda “Yangi O‘zbekiston-2030” strategik dasturi doirasida

⁵⁵ Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, Tashqi iqtisodiy faoliyat yo‘nalishi magistranti, e-mail: khakimjanovaaziza@gmail.com